

### 2021 – yilning yanvar – mart oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 – yilning yanvar– mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 443,4 mlrd. so'mni yoki 2020 – yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2 322,3 mlrd. so'mni (105,0 %), o'rmon xo'jaligida – 75,7 mlrd. so'mni (101,5 %), baliqchilik xo'jaligida – 45,4 mlrd. so'mni (100,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 8,2 % ni tashkil etdi.



2 443,4

Xorazm viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm

01



2 322,3 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02




75,7 O'rmon xo'jaligi

03




45,4 Baliqchilik xo'jaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021– yilning yanvar– mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 95,0 % i– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,1 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,9 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2021– yilning yanvar– mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Urganch (274,7 mlrd. so‘m) va Gurlan (262,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (10,6 mlrd. so‘m), Tuproqqal‘a tumanini (55,1 mlrd. so‘m) va Urganch shahrini (98,3 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (104,9 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Bog‘ot (108,2%), Yangiariq (107,4 %), Yangibozor (107,0 %), Xonqa (106,7 %) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati



### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 307,3 mlrd. so'mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 97,0 mlrd. so'mni (126,0 %), chorvachilik mahsulotlari– 2 210,3 mlrd. so'mni (104,4 %) tashkil qildi.


## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

4,2 %  
Dehqonchilik  
mahsulotlari




95,8%  
Chorvachilik  
mahsulotlari

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 91,6 % i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,9 % i– fermer xo'jaliklariga, 2,5 % i– qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2021– yilning yanvar– mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumanida (14,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (100,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa tumanida (8,3 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Tuproqqal‘a tumanida (2,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Gurlan tumanida (84,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Tuproqqal‘a tumanida (0,3 %) qayd etildi.

### **Dehqonchilik**


2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 97,0 mlrd. so‘mni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 126,0 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida sabzavot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Yangiariq (0,8 ming t.), Bog‘ot (0,6 ming t.), Xonqa (0,5 ming t.) va Urganch (0,4 ming t.) tumanlarida kuzatildi.


2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 2,8 ming t. sabzavot (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 70,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 66,4 % gishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar







Xorazm viloyati bo'yicha  
sabzavotlar  
yetishtirish hajmi, t.




## Chorvachilik



2021– yilning yanvar– mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 210,3 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,8 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 38,2 ming t. goʻsht (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 4,9 % ga koʻp), 207,0 ming tonna sut (4,2 % ga koʻp), 109,1 mln. dona tuxum (0,3 % ga koʻp), 1,6 ming dona qorakoʻl teri (1,2 % ga koʻp) ishlab chiqarilgan, 1 843 t. baliq (0,6 % ga koʻp) ovlangan.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 38,2 ming t. go'sht (2020–yilning yanvar–martiga nisbatan 4,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




## Xorazm viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, t.




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 207,0 ming t. sut (2020– yilning yanvar– martiga nisbatan 4,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,4% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Xorazm viloyati bo'yicha  
sut yetishtirish  
hajmi, t.






## Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 109,1 mln.dona tuxum (2020– yilning yanvar–martiga nisbatan 0,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 60,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyati bo'yicha  
olingan tuxum  
hajmi, ming dona




## Baliq


**Hajmi,tonna**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1843 tonna (2020– yilning yanvar– martga nisbatan 0,6 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 50,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, t.




### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 13,6 % fermer xo'jaliklariga, 84,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 % I qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiy sonidan 11,2 % fermer xo'jaliklariga, 88,2% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 13,2 % fermer xo'jaliklariga, 65,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 927,7 mingtaga etdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,0 mingtaga (1,3 %) ko'paydi.

2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.






**Xorazm viloyati bo'yicha  
yirik shoxli qoramollarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 352,0 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,3 mingtaga (1,5 %) ko'paydi.

2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.




## Xorazm viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, jami qo'y va echkilarining 84,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Xorazm viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,6 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 52 boshga (0,9 %) ko‘paydi.

## Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar






2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 88,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 858,1 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 177,3 mingtaga (3,1%) ko‘paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘sish sur‘ati**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 65,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



Xorazm viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 62-224-64-96  
• 71-202-78-89